

# **BOBUR NOMIDAGI ANDIJON VILOYATI AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI ILMIY METODIKA XIZMATI**

---



## **OMMAVIY TADBIRLARNING ZAMONAVIY SHAKL VA USULLARINI QO'LLASH METODIKASI**

*metodik qo'llanma*

**ANDIJON – 2024**

*Ilmiy metodika xizmati tomonidan tayyorlandi*

**Ommaviy tadbirlarning zamonaviy shakl va usullarini qo'llash metodikasi** : metodik qo'llanma / Bobur nomidagi Andijon viloyati axborot-kutubxona markazi ; tuzuvchi D. Karimova. – Andijon, 2024. – 18 b.

Ushbu metodik qo'llanma axborot-kutubxona muassasalarida mutaxassislar kitobxonlik va kitob targ'iboti uchun o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarning zamonaviy shakl va usullaridan keng foydalanishi uchun tuzildi.

Hozirgi zamon axborot-kutubxonaning muassasalarini kitobxonlari uchun qulay kerakli va ko'plab kitobxonlari uchun qiziqarli bo'lgan madaniy muhitni yaratish, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, kitob va kitobxonlik orqali shaxsni kamol toptirishda yakka tartibda va ommaviy madaniy ishlarni shakllarini tashkil qilish vazifasi qo'yildi.

Ommaviy tadbirlar, albatta, kutubxonanining samarali ishlarni shakllaridir. Aynan ular tufayli kutubxonachi ko'pincha o'zini ijodkor, o'z sohasining professionali sifatida ko'rsatadi va o'quvchiga ta'sir qiladi hamda uni kitob o'qishga jalb qiladi. Ommaviy tadbirlarni o'tkazish tajribasi kutubxonachining rivojlanishiga imkon beradi, muloqot ko'nikmalarini va malakalarini oshiradi, ijodkorlik va professional tarzda o'zini o'zi anglashinga erdam beradi.

Axborot-kutubxonaning muassasalarida ommaviy ishlarni tashkil qilishning maqsadi kitobxonlarda o'qish madaniyatini shakllantirish va adabiyotlarni targ'ib qilishdagi ommaviy ishlarning shakl va usullaridan kutubxona va kitob reklamasi, kitob taqdimotini o'tkazish usullari, adabiyotlarni targ'ib qilishda foydalaniladigan innovasiya vositalari, ommaviy tadbirlarni o'tkazish metodikasi va yo'l-yo'riqlaridan foydalanishdir.

### **Ommaviy ishning mazmuni va xususiyatlari**

Ommaviy ish kutubxonalarning madaniy dam olish faoliyatini amalga oshirish tizimi hisoblanadi. Uning o'ziga xos maqsad va vazifalari mavjud bo'lib, ularning asosiysi kitobxonlar va foydalanuvchilarning qiziqishlarini shakllantirishga ta'sir qiladi.

Kutubxonadagi ommaviy ishlarning asosiy turlari:

- ko'rgazmali targ'ibot (kitob ko'rgazmalari, namoyishlar, reklama tadbirlari);
- og'zaki targ'ibot (anjuman, mavzuli kechalar, babs-munozaralar va boshqalar).

Ommaviy tadbirlarni o'tkazish orqali kutubxonachilar kitobxonlarga:

- bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishlarini tashkil etish;
- ta'lim jarayoniga yordam berish.

### **Axborot-kutubxona muassasalarida kitobxonlarga guruhli va ommaviy xizmat ko'rsatishning shakl va usullari.**

Axborot-kutubxonaning asosiy vazifalaridan biri kutubxona fondida mavjud bo'lgan adabiyotlar va vaqtli matbuot nashrlarini kitobxonlarga

yetkazish, ular e'tiborini jalg etib, undan samarali foydalanishga o'rgatishdir. Ommaviy tadbirlar ayrim asarga yoki ayrim mavzuga oid manbalar haqida kitobxonlarga axborot berib qolmasdan, ularni asarlarga hamda matbuot nashrlariga bo'lgan qiziqishlarini shakllanishiga va taraqqiyotiga imkoniyat yaratadi. Kitobxonlarni fikrlash qobiliyatlarini rivojlanishiga hissa qo'shadi. Axborot-kutubxona muassasalari doimo davrning eng dolzarb muammolarini o'zida aks ettirgan turli soha adabiyotlarini targ'ib etish orqali kitobxonlarga axborot beradi. Shuningdek, kitobxonlarni o'zaro bir-birlari bilan muloqot qilishi, fikr almashishi uchun sharoit yaratadi.

Ommaviy tadbirlarni usullari xilma-xildir. Ulardan foydalanish axborot-kutubxona muassasalari oldida turgan vazifalardan kelib chiqadi. Ular tomonidan tashkil etiladigan ommaviy tadbirlar asosan adabiyotlarni bevosita ko'rishga asoslangan ko'rgazmali hamda og'zaki va keng qamrovli targ'ibotlarga asoslanadi.

### **Tadbirlarni o'tkazish uchun quyidagi ketma-ketlikda ishlash tavsiya etiladi:**

- Mavzuni tanlash va maqsadni belgilash;
- Mavzuga oid hujjatlar bilan tanishish;
- Kerakli hujjatlar, adabiyotlarni kitob fondidan va internet saytlaridan tanlash;
- Qiziquvchi shaxslar va tashkilot, muassasalar bilan aloqa o'rnatish, muloqot qilish;
- Tadbir dasturini ishlab chiqish va stsenariysini yozish;
- Reklama qilish;
- Ishtirokchilarni tanlash va taklifnomalar yuborish;
- Ommaviy axborot vositalari - televidenie, radio va gazeta, jurnal muhbirlarini e'tiborini jalg etish, tadbirni keng targ'ib qilish;
- Tadbir o'tkaziladigan joyni jihozlash, bezatish va mavzuga oid adabiyotlar ko'rgazmasi tashkil etish;
- Tadbirni belgilangan vaqtida o'tkazish;
- O'tkazilgan tadbirni axborot-kutubxona muassasasining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanallarida yoritish;
- O'tkazilgan tadbir samaradorligi, yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish.

Ommaviy tadbirlarning shakllaridan davra suhbatlari, anjuman, konferentsiya, adabiy, badiiy-musiqali kechalar, munozara kechalari va boshqa keng kitobxonlar ommasiga mo’ljallangan katta hajmdagi tadbirlarni O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo’limlari, viloyat Oila va xotin-qizlar, Adliya, Ichki ishlari, Savdo-sanoat palatasi, Madaniyat, Sog’liqni saqlash, Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmalari va boshqa nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilishi tadbirning samaradoroligini yanada oshiradi.

Madaniy-ma’rifiy muassasalar va kutubxonalarda o’tkaziladigan ommaviy tadbirlarning turli shakl va usullarini qo’llash, bir vaqtning o’zida ko’p sonli kitobxonlarni va turli qiziqishdagi foydalanuvchilar guruhlarini qamrab olish kerak.

**Adabiyotlarni audiovizual vositalar yordamida targ’ib qilish.** Kutubxonada adabiyotlar targ’iboti zamonaviy texnika vositalaridan foydalangan holda ham amalga oshiriladi. Bunda ekranli va ovozli axborotning vositalaridan foydalilanadi. Ularga kinofilmlar, videofilmlar, diafilmlar, ovozli-slayd filmlari, matn, rasmlar va boshqalar kiradi. Ushbu vositalar kutubxona tomonidan amalga oshiriladigan ko’rgazmali, og’zaki va kompleks tadbirlarda qo’llaniladi. Masalan: zamonaviy kompyuter texnikasi yuqorida qayd etilgan vositalarni barchasini o’zida mujassam eta oladi va adabiyotlarni targ’ib qilish maqsadida tashkil etiladigan tadbirlar samaradorligini oshirishga katta hissa qo’shamdi.

Adabiyot targ’ibotini og’zaki usulining ahamiyati shundaki, bevosita insonlar bilan, ya’ni kutubxonachini aynan kitobxon bilan to’g’ridan to’g’ri munosabatda bo’lishida namoyon bo’ladi. So’zga chiqqanda kitobxonlarni ko’rish asosiga ularning kayfiyatini va aytilayotgan ma’lumotlarni ular qanday o’zlashtirayotganligini his qilib, o’z fikrini ularga moslashtirishga harakat qiladi. Psixologlar tajribasi shuni ko’rsatadiki, kishi bir o’zi bo’lganidan ko’ra odamlar orasida o’zini boshqacharoq his qiladi, axborot olishga intiladi. SHu jumladan, og’zaki nutqning ham ta’sirchanligi ortadi. Shuningdek, kutubxonalar tomonidan o’tkazilayotgan ommaviy tadbirlarga ham kitobxonlarni munosabatlari o’zgaradi. Ommaviy tarbirlar o’tkazilganda kutubxonachi tinglovchilar qiziqishini xisobga oladi. Og’zaki axborotni muvafaqiyati to’g’ridan to’g’ri kutubxonachini nima haqida va qanday gapirishiga ham bog’liq. Og’zaki axborot faqat mantiqiylikka emas, hissiyotga ham bog’liq bo’ladi. O’z fikrini aytishni yakuni qator omillarga bog’liq: aytilayotgan axborotni qiymatiga, uni qanchalik yangiligiga, so’zlovchini omma bilan munosabatiga va so’zlash san’ati mahoratiga. SHunday adabiyotni tavsiya etish kerakki, u haqiqatan ham muhim ahamiyatga ega bo’lsin. So’zga

chiquvchi adabiyotni yaxshi bilishi va eng muhimi ravon va ifodali so'zlay olishi kerak. Shunday qilib, og'zaki axborot kitob mazmunidan ham ko'ra kengroq bo'lib ga qo'shimcha qimmatli axborot beradi. Haqiqatdan ham so'z-yangi g'oya va to'plangan bilimlarni ommaga yetkazish vositasi bo'lib qolmasdan, kitobxonlarni o'zaro hamkorligini tashkil etish hamda tarbiyalash vositasi. Kitobxonlarga aytilayotgan so'zlar qanchalik ta'sirchan bo'lsa, belgilangan vazifa shunchalik muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. So'nggi yillarda adabiyotlar targ'ibotining og'zaki usuli ommaviy tadbirlar qatoridan o'ziga mustahkam joy olmoqda. Uni xilma-xil usullari shakllanmoqda. Ularga qisqacha to'xtalib o'tamiz: bibliografik obzor.

**Bibliografik obzorlar** tavsiya - axborot xarakteriga ega bo'lgan tadbirlar majmuasiga kiradi. Bevosita kutubxonachilik shakli bo'lib adabiyotlar haqida qisqacha og'zaki axborot beradi. Ularni barchasiga xos bo'lgan xususiyat-yangi adabiyotlar va biron bir mavzuga oidlikdir. Bibliografik obzor muhim masalalarga tezkorlik bilan munosabatda bo'la olishi bilan ajralib turadi. Bibliografik obzorlar asosan kutubxonachilar tomonidan o'tkaziladi. Ayrim hollarda yuqori saviyali kitobxonlar guruhiga adabiyotlar haqida ilmiy-tanqidiy tavsiflar berish maqsadida mutaxassislarni taklif etish maqsadga muvofiq. Bibliografik obzorlar mustaqil ravishda yoki biror bir tadbirga bog'liq holda tashkil etilishi mumkin. Respublikamizning ba'zi kutubxonalarida kitobxonlarni muntazam jalg etish maqsadida bibliografik obzorlarni o'tkazish uchun maxsus kunlar belgilangan. Keyingi yillarda eng yaxshi deb hisoblangan bibliografik obzorlar yozib olinib, radio orqali kitobxonlar e'tiboriga havola etilmoqda. Bibliografik obzorlar asosan mavzuli, yangi kelgan adabiyotlar va yangi jurnallar, gazeta maqolalaridan iborat bo'lishi mumkin.

**Mavzuli bibliografik obzorlar.** Biror bir dolzarb mavzuni yoritishga mo'ljallangan bo'lib, mavzuga oid eng zarur adabiyotlarni kitobxonlar e'tiboriga tavsiya etadi. Bibliografik obzor ayrim mashhur shaxsga, muhim sanaga, davrning siyosiy voqealariga, fan-texnika yangiliklariga oid bo'lishi mumkin. Masalan: "Sizga ta'zim, aziz ustozlar!", "Ozodlik ulug' ne'mat", A.Oripovning tavalludiga oid "Barhayot san'at", "Sehrli she'riyat", "Hur diyor kuychisi" va boshqalar. Yangi adabiyotlar obzori. Kitobxonlarni kutubxonaga keltirilgan yangi adabiyotlar bilan tanishtirish maqsadida tashkil etiladi. Obzorning bu turi kitobxonlarga nashrlar haqida axborot berish ishlarini ajralmas qismi. Yangi adabiyotlar obzori ko'pincha "Yangi adabiyotlar ko'rgazmasi"ni ochilishiga hamda "Axborot kunlariga" qo'shib o'tkaziladi. Yangi kelgan adabiyotlar barcha kitobxonlar uchun ham yangi adabiyotlar bo'lavermaydi, bunday adabiyotlar ichida qayta nashrdan chiqqan va jurnallarda chop etilgan asarlar ham bo'lishi tabiiy. Kutubxonalarga

yangi adabiyotlar obzorini turli mavzularda tashkil etish mumkin. Masalan: “Fermerlar! Bu adabiyotlardan foydalaning!”, “Shifokorlar! Siz uchun!”, “Qishloq xo’jaligi mutaxassislari, yangi adabiyotlar bilan tanishing!”, “Uy bekalari! Sizlar uchun!” va boshqa mavzularda. Bibliografik obzorni tayyorlash uslubi. Turli bibliografik obzorlar maqsadi jihatidan xilma – xillikka ega. Bundan ularni tayyorlash uslubi shakllanadi. Ammo umumiylab ham mavjud bo’lib barcha obzorlar bu jarayonni inobatga oladilar. Ya’ni adabiyotlarni to’plash, har bir adabiyotni, maqolani mazmunini yoritish, manbalar muntazamliligi, ma’lumotlarni jonli ifodalash. Bu jarayonlarni biror obzor chetlab o’ta olmaydi. Obzorni tayyorlash uni mavzusini aniqlashdan boshlanadi. Tanlagan soha qaysi kitobxonlar guruhi uchun mos kelishi aniqlanadi. Obzor uchun asosiy adabiyotlar tanlab olinadi, ularga tavsif beriladi, oxirida qo’shimcha adabiyotlar eslab o’tiladi. Eng zarur adabiyotlarni tanlab olishga erishish uchun tanqidiy ma’lumotlardan foydalilanadi. Adabiyotlar miqdori kitobxonlar guruhibiga, mavzu doirasiga, fonddagi adabiyotlar miqdoriga bog’liq bo’ladi. Tajribali guruhi uchun obzor tayyorlash uchun ko’proq adabiyotlar tanlash maqsadga muvofiq bo’ladi. Ommaviy kitobxonlar uchun 5-6 adabiyot, mutaxassislar uchun 10-12 kitobga obzor berish mungkin. Bibliografik sharhlar asosan uch qismdan: so’zboshi, kitoblarga tavsif va xulosadan tashkil topadi. Kirish qismida mavzu qisqacha yoritib beriladi. Agar mavzu kitobxonlar guruhi uchun yaxshi tanish bo’lmassa, uning ahamiyati yoritiladi. Kitoblarni tavsiflashda asar haqida asosiy ma’lumot beriladi. Badiiy asar haqida kutubxonachi obzor berar ekan faqat asarning asosiy qaxramonlari, asarni badiiy qiymatini yoritib qolmasdan, eng qiziqarli joylaridan ayrim parchalarni bayon qilishi, asarni ijobiy jihatlari va kamchiliklariga e’tiborni qaratishi mumkin. Asosiy maqsadi - kitobxonda asarga bo’lgan qiziqishni uyg’otishdir. Ilmiy asarlar, ishlab chiqarishga, texnikaga oid asarlar obzorini tashkil etishni o’ziga xos xususiyatlari mavjud. Har bir adabiyotga tavsif berish, qisqa va aniq, mazmunli bo’lishi shart. Ilmiy adabiyotlarga tavsif berishda ulardagi masalalarni oddiy qilib yoritish maqsadga erishishning samarali usuli hisoblanadi. Bibliografik obzorni tayyorlash to’liq matnni yozishni talab etadi. Tayyorlangan matnni kutubxona jamoasi tomonidan muxokama etilishi maqsadga muvofiqdir. Matn asarning o’zidan, annotatsiya, so’zboshi ayrim asarlarga berilgan xulosadan va tanqidiy manbalardan foydalanim yoziladi. Tayyorlangan obzor kitobxonlarga o’qib berilmaydi. O’qib berish kitobxon bilan kutubxonachi o’rtasiga to’siq qo’yadi. Kutubxonachi o’zini erkin tutgan holda adabiyotlarni sharhlashi uning ahamiyatini oshiradi.

**Davra suhbatlari.** Keyingi yillarda kutubxonalarda davra suhbatlariga alohida e’tibor bilan qaralmoqda. Tadbirning bu turi biron bir mavzuni kitobxonlarni fikr-

mulohazalari, qarashlari asosida o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Davra suhbatlari asosan fikr doirasi keng, o'z mutaxassisligini har tomonlama yaxshi biladigan, mashhur fan va madaniyat xodimlari, shoir va yozuvchilar yoki rahbar xodimlar va kitobxonlar ishtirokida tashkil etiladi. Tadbirda bunday shaxslarni ishtirok etishi, tanlangan mavzu bo'yicha ularning fikr-mulohazalari kitobxonlarda katta qiziqish uyg'otadi. Tadbirlarni kutubxona sharoitida o'tkazilishi, shu bilan birga suhbat tariqasida, norasmiy tusda tashkil etilishi kitobxonlarni jalg qiladi va bunday tadbirlarda ishtirok etishga undaydi. Davra suhbatlari uchun mavzu davrning eng dolzarb muammolaridan kelib chiqqan holda tanlanadi. Masalan: "Hushyorlik - eng yaxshi himoya", "Yoshlar bizning kelajagimiz", "Ogoh bo'ling, odamlar!", "Avestoda inson madhi", "Tabiatni asrang", "Siz o'z huquqingizni bilasizmi?", "Qaynonam - onam mening, kelinim - bolam mening" kabi mavzularda.

**Adabiyotlar targ'ibotining ommaviy usullari.** Adabiyotlar haqida axborot berishda ommaviy tadbirlarni keng qamrovli usullari alohida ahamiyatga ega. Bu usullar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, kutubxonalarda keng qo'llaniladi. Ularning birinchi xususiyati keng jamoatchilikka mo'ljallanganligidir. Ikkinchidan, bu tadbirlarda og'zaki va ko'rgazmali targ'ibot usullari uyg'unlashgan bo'ladi. Uchinchi xususiyati shundaki, axborot ahamiyatiga ega bo'lgan bu tadbirni faqat kutubxonachilarni o'zi tayyorlamaydi, balki keng jamoatchilik ishtirok etadilar. Bu tadbirda kitobxonlar faol ishtirok etadilar. To'rtinchi xususiyati, tayyorgarlik ko'rish jarayoni uzoq muddatni va e'tiborni talab etishi. Bir vaqtning o'zida adabiyotlar targ'ibotining xilma-xil usullaridan foydalanish imkoniyati mavjud bo'lgan ommaviy tadbir shakllari adabiyotlar targ'ibotining keng qamrovli usuli deb ta'riflanadi. Masalan: **Kitobxonlar konferentsiyasi, kitoblar muhokamasi, adabiy kechalar, og'zaki jurnallar, kitob taqdimotlari** bunga misol bo'la oladi. Ularda kitob ko'rgazmalari, adabiyotlar obzori, zamonaviy texnika vositalaridan foydalanish uyg'unlashgan bo'ladi. Ularning ba'zilariga to'xtalib o'tamiz:

**Adabiy kechalar.** Adabiyotlar haqida axborot berish shakliga taalluqli bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan misollar asosida kitobxonlarni kitobdag'i ma'lumotlar, xulosalar, yozuvchining hayoti va faoliyati bilan tanishtirishga qaratilgan bo'ladi. Kechani mavzusi turli vositalar: musiqa, badiiy so'z, tasviriy san'at orqali yoritiladi. Bu kechaning samaradorligini oshiradi. Adabiy kechalarni shakllari xilma-xillikni tashkil etadi. Bu ma'ruzали kecha, bibliografik obzorlar bilan olib boriladigan, kitob ko'rgazmalari namoyish etiladigan, mashhur shaxslar bilan uchrashuvlar (yozuvchilar, olimlar, jamoa rahbarlari va boshqalar bilan) adabiy va badiiy hamda musiqali kechalar va boshqalar. Adabiy kechalarni tayyorlash boshqa usullardan birmuncha osonroq bo'lgani uchun tez-tez tashkil etib turiladi. Asosan adabiy kechalarga 3-4 hafta tayyorgarlik ko'rildi.

Kutubxonadagi javobgar shaxs kechani o'tkazishga oid zarur tayyorgarlikni ko'radi, manfaatdor bo'lган muassasalar bilan kelishib oladi, so'zga chiquvchilarni taklif etadi, e'lonlar yoziladi. Kechaga oid suhbatlar o'tkaziladi. Kitobxonlarga kecha mavzusiga oid adabiyotlar tavsiya etiladi. Kecha dasturida barcha tadbirlar belgilangan bo'ladi. Adabiy kechada axborot olish va hissiyotiga berilish yo'li mavjud. Fan-texnikaga oid kechalar ko'proq axborot olishga, mavzu bilan chuqurroq tanishishga mo'ljallangan bo'ladi. Adabiy-musiqali kechalarda badiiylik va hordiq chiqarish asosiy o'rinni oladi. Har bir kechani o'tkazish aniq dastur asosida rejali, stsenariyga asoslangan bo'ladi. Bunga bu sohani bilimdonlari taklif etiladi. Adabiy kechalarga faqat kutubxona kitobxonlarigina taklif etilmasdan, balki kutubxonaga a'zo bo'lмаган aholi ham qatnashishlari mumkin. Bu axborot-kutubxona xizmatidan foydalanuvchilarni yangi vakillarini jalb etish uchun samarali vositadir. Adabiy kechalar kutubxonalar faoliyatida doimiy tashkil etiladigan tadbirlar sirasiga kirib bormoqda. Keyingi yillarda turli mavzularda adabiy kechalar tashkil etilmoqda. Masalan: "Haqiqat baribir yengadi", (O.Yoqubov), "El ardog'idagi shoira" (G.Nuralieva), "Adabiyot ko'ngil zari, yozuvchi uning zargari" (O'.Xoshimov) bilan uchrashuv kechalari, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavalludiga oid "G'azal mulkining sulton'i", Nodirabegim tavalludiga bag'ishlangan "Go'zal gulshan malikasi" va boshqa mavzularda adabiy kechalar, "Qadamning qutlug' bo'lsin navro'zim", "Ayol bilan go'zaldir, bu olam", "Keksa san'atkorlar - san'atimiz sarchashmalari" va boshqa mavzularda adabiy-musiqali kechalar o'tkazish kutubxonalarda muntazam amalaga oshirilmoqda.

**Munozara kechasi** kutubxonalarda o'tkaziladigan ommaviy tadbirni bir shakli. Munozara – bu jamoaviy muhokama shakli, ko'plab nuqtai nazarlar, fikrlar, qarama-qarshi va bir-birini istisno qiluvchi mulohazalar, muayyan muammo bo'yicha pozitsiyalar to'qnashuvi. Bahsning maqsadi – bu hodisa haqidagi g'oyalarni kengaytirish, aniqlikka erishish, o'z qarashlari va pozitsiyalarini aniqlashtirishdir. Munozara – bu mavzu yoki muammo bo'yicha turli nuqtai nazarga ega bo'lган shaxslar o'rtasida auditoriya oldida olib boriladigan og'zaki ilmiy bahs.

Munozarada asosan munozara o'tkaziladigan soha mutaxassislari va kitobxonlar ishtirok etadilar. Munozara uchun mavzular turlicha bo'lishi mumkin, masalan, "Atrof muhitni muhofaza qilish", "Giyohvandlikka qarshi kurash", "Jamoat tartibini saqlash" va boshqa. Uning qatnashchilari o'zlarining qat'iy fikrlariga ega bo'lishi va munozara mavzusi bo'yicha ma'lum bir axborotlarga ega bo'lishi shart. Kutubxonalar bu munozara kechasini o'tkazishdan oldin qiziquvchilar uchun zarur axborot manbalarini kitobxonlarga tavsiya etish ishlarini

amalga oshirishlari kerak. Munozara kechasi, kechaga rahbarlik qiluvchi shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Kecha rahbari shu sohani yaxshi biluvchi mutaxassis tomonidan boshqarilishi, uni tartibli va qiziqarli o'tishini, ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlaydi.

**Savol-javob kechalari.** Kutubxonalarda savol-javob kechalarini o'tkazish turli muassasalar hamkorligida tashkil etiladi. Maslahatchi qilib olimlar, yuristlar, shifokorlar taklif etiladi. Savol-javob kechalari kitobxonlarni qiziqtiruvchi, turli masalalar yuzasidan axborot olish manbai bo'lib xizmat qiladi, masalan: "Uylarni xususiylashtirish", "Tadbirkorlik va soliq", "O'z huquqingizni bilasizmi?", "Nafaqa ta'minoti", "Inson va uning imkoniyatlari" va boshqalar. Savol javob kechalarini yo'nalishi adabiyotlar tavsiyasiga qaratilgan bo'lishiga turli yo'llar bilan erishish mumkin: maslahatchilarga ularni javobi kecha mavzusiga oid aniq adabiyotlarni tavsiyasi bilan bo'lishi iltimos qilinadi.

**Kitobxonlar konferentsiyasi.** Adabiyotlarni muhokama etishga mo'ljallangan ommaviy tadbirning usuli bo'lib, bir yo'la keng guruhini jalg etishga imkoniyat beradi. Konferentsiya ayrim asarni, biror mavzuni tahlil etishga asos yaratadi. Bu o'z navbatida kitobxoni mustaqil fikrlashini shakllantiradi. Nashriyot va tahririylatlarga, yozuvchi va tanqidchiga bundan keyin qanday matbuot asarlari zarurligi haqida ma'lumot beradi. Konferentsiya ishtirokchisi bo'lgan kitobxon asar yoki mavzuni erkin tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zining asar yoki mavzu haqida shakllangan mulohazasini bayon etib, boshqa bilan bahslashadi. Kitobxon konferentsiyada ishtirok etar ekan, kitob ustida mustaqil ishlaydi, o'zining estetik didini yuksalishi uchun zamin yaratadi. Yangi-yangi mavzularni izlaydi, fikrlash qobiliyati kamol topadi. Kitobxonlar konferentsiyasi bir qator madaniy ma'rifiy va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda tashkil etiladi. Konferentsiyada asar muallifi, gazeta-jurnal xodimlari, nashriyot vakillari ishtiroki ishtirokchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Mustaqilligimiz taraqqiyotiga, Vatanimiz tarixiga, ma'naviy barkamollika oid adabiyotlardan konferentsiyalar uyuştirish kutubxonalarning axborot- kutubxona xizmati ko'rsatish faoliyatidan mustahkam joy olmoqda. Kitobxonlar konferentsiyalari asosan- ma'lum bir asarga oid, mavzuga va biron bir muallifga bag'ishlab tashkil etiladi.

**Ayrim asarga oid konferentsiya.** Dolzarb mavzular yoritilgan asarlarni kitobxonlarga yetkazish maqsadida tashkil etiladi. Bunday konferentsiyalar kutubxonalarda tez-tez o'tkazib turiladi. Ayrim asarni tanlash, munozarada muallif fikri bilan yaqindan tanishishga, asarni badiiy darajasini o'rganishga imkon beradi. Agar konferentsiyada hali ko'pchilikka ma'lum bo'lмаган muallifni birinchi yirik asari muhokamaga qo'yilsa yozuvchining hayoti va faoliyati bilan tanishtirish,

asarga tavsifnomalar berishda o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif taniqli bo'lsa to'g'ridan – to'g'ri muhokamani boshlash mumkin. Konferentsiyani o'zi, keng jamoatchilikni e'tiborini qozongan muallif asarini tanlab olishni taqozo qiladi. Texnika va qishloq xo'jaligiga oid adabiyotlarni muhokama qilishda, ilg'or tajribalar yoritilgan va uni ishlab chiqarishda qo'llashga doir adabiyotlar olinadi. Kitobxonlar yangilikni amaliyat uchun qanchalik muhimligini va uni ishlab chiqarishdagi o'rni haqida bahslashadilar. Konferentsiya o'tkazishga oid asar tanlashda kitobxonlar qiziqishi albatta inobatga olinadi. Tanlangan asarlarda hayotiy muammolar aniq aks ettirilgan bo'lishi, mustaqilligimiz yutuqlari, erkinlik, insonparvarlik, sevgi, vafo va sadoqat g'oyalari madh etilgan bo'lishligi uni muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlaydi. Kutubxonalarda ayrim asarlarga oid konferentsiyalar tashkil etilgan va etilmoqda. Masalan: A.Qodiriyning "O'tgan kunlar", A.Qahhorning "Sarob", G'.G'ulomning "Shum bola", T.Malikning "Shaytanat", O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", "Ko'hna dunyo", Mirmuxsinning "Ilonlar o'chi", Oybekning "Navoiy", O'.Hoshimovning "Dunyoning ishlari", "Qalbingga quloq sol" kabi asarlar yuzasidan o'tkazilgan kitobxonlar konferentsiyalari keng jamoatchilikni e'tiborini qozongan.

**Mavzuli konferentsiyalar.** O'zining uslubiyoti jihatidan mavzuli konferentsiya bir munkha murakkab jarayon. Konferentsyaning bir turi muhim mavzuni tanlashdan boshlanadi. Uni tayyorlash va o'tkazish shu sohaga oid ko'plab adabiyotlar bilan tanishib chiqishni taqozo qiladi. Bir qator adabiyotlarni olish dastlabki qarashlarga katta imkoniyatlar ochib beradigandek ko'rindi. Aslida olingen adabiyotlarni barchasi haqida bahslashish imkoniyati bo'lmasdan bir qismi haqida bahslashishga erishiladi. Mavzuli konferentsiyadan haddan tashqari katta mavzularini olmasdan ayrim sohani yoritib beradigan mavzuni tanlash maqsadga muvofiq. Mavzu qanchalik keng bo'lsa uni yoritish shuncha murakkab bo'ladi. Mavzuli konferentsiyani xilma-xil mavzularda tashkil etish imkoniyatlari mavjud. Masalan, kutubxonalarda "Muqaddassan -ayol", "Moziydan taralgan ziyo", "Orzular ushalgan kun", "Suv-tiriklik manbai", "Madaniyatimiz va ma'naviy merosimizni asraylik", "O'zbek tilim, jonu dilim", "Jannat onalar oyog'i ostidadir" kabi mavzularda konferentsiyalar o'tkazilgan.

**Muallif ijodiga bag'ishlangan konferentsiyalar.** Muallif ijodiga doir konferentsiya ham o'z xususiyatlariga ega. Belgilangan muallifning faoliyatini, mahoratini uning ijodidagi o'ziga xos fazilatlarni belgilashda alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan: "Isyonkor shoir"(Mashrabga), "Asrlar osha noming barhayot" (Cho'lponga), "Shoir izlarini izlab" (U.Nosirga), "Abdulla Qahhor mohir hikoyanavis", "Ajoyib shoir va davlat arbobi", (Bobur), "Nodira - ishq nazmining quyoshi" va boshqa mavzularda tashkil etilgan konferentsiyalar misol bo'la oladi.

Kitobxonlar konferentsiyasini tayyorlash va o'tkazish uslubi. Kitobxonlar konferentsiyasining boshlang'ich bosqichi – mavzu tanlashdan boshlanadi. Ayni shu davrdan boshlab kutubxona turli tashkilotlar bilan bog'lanib shu tarmoq mutaxassislari bilan konferentsiyaga tayyorgarlik ishlarini amalga oshiradilar. Konferentsiya rejasi ishlab chiqiladi, asosiy tadbirlar va ularga ajratilgan vaqt va konferentsiyani o'tkazish vaqt va joyi belgilanadi. Muhokama qilish uchun tanlangan zarur adabiyotlar bilan kitobxonlar ta'minlanadi. Kutubxonachi konferentsiyada so'zga chiquvchilar bilan ish olib boradi, ularni faol ishtirokchi bo'lishini ta'minlashga harakat qiladi. Konferentsiyaning muvaffaqiyati asarni tahliliga bog'liq. SHuning uchun, kitobxonlar bilan yaqindan suhbatlashadi, asar haqidagi ularni mulohazasini o'rghanadi. Ularni o'qish darajasiga qarab tanqidiy adabiyotlarni tavsiya qiladi. Tayyorgarligi yetuk bo'limganlariga asar haqida taqrizlarni tavsiya etadi. Tanqidiy materiallar bilan tanishib borish asarni dastlab o'qiganda shakllangan fikrlarini o'zgarib borishiga sababchi bo'ladi. Barcha vazifalar nihoyasiga yetkazilgach taklifnomalar tarqatiladi, matbuot orqali axborot beriladi. Konferentsiya maxsus tayyorlangan binolarda asosan o'quv zallarida o'tkaziladi. Konferentsiya qisqacha kirish so'zi bilan ochiladi. Bunda asar haqida, muhokamaning maqsadi, asarning muhokamaga qo'yilish sababi, muallif ijodiga qisqacha tavsifnomasi, muhokamada e'tibor berilishi zarur bo'lgan masalalar gapiriladi. Keyin asar muhokamasiga navbat beriladi. Konferentsiyani olib boruvchi muhokamani yakunlaydi. Unda asarga berilgan mulohazalar umumlashtirilib xaqqoniy baholanadi, qo'shimchalar kiritiladi. Konferentsiya yakunida faol ishtirokchilar alohida ta'kidlanib barcha ishtirokchilarga samimiy minnatdorchilik bildiriladi. Konferentsiyani muvaffaqiyatli o'tishi, qatnashuvchilarni faolligi va bu tadbirni ta'sirchan bo'lishi boshqaruvchining mahoratiga bog'liq. Uning mahorati tufayli so'zga chiquvchilar va eshituvchilar o'rtasida samimiy munosabat o'rnatiladi. Boshqaruvchi nihoyatda topqir, katta zakovat egasi, konferentsiya mavzusi bilan yaqindan tanishgan bo'lishi kerak. Konferentsiyaning muhim elementlaridan yana biri uni bayonnomasini yozish. Bayonnaoma muallifga uning asari haqida ommani fikrini bilish imkoniyatlarini yaratadi. Konferentsiyani muvaffaqiyatini unda aholini faol ishtirokidan va berilgan adabiyotlarni miqdorini ortib borishidan bilamiz.

**Og'zaki jurnallar.** Har bir kutubxona mamlakatning xalqaro va ichki hayotidagi yangiliklarni, fan-texnika yutuqlarini, adabiyot, san'at va boshqa ma'lumotlar haqida axborot berishni o'ziga xos yo'llarini qo'llaydi. Bu maqsadni amalga oshirishda kutubxonalar og'zaki jurnallardan foydalanadilar. Bu tadbir dastavval klublarda joriy etilgan, keyinchalik kutubxonalar faoliyatida ham qo'llanilmoqda. Ommaviy tadbirni bu shakli kitobxonlar tomonidan ijobiy kutib

olindi. Og'zaki jurnal muhim voqealardan xabardor etishga ko'maklashuvchi axborotdir. Mavzuli jurnallar muhim sanalarga, ommaviy marosimlarga oid bo'ladi. Og'zaki jurnalni o'ziga xos xususiyati og'zaki usulni ko'rgazmali bilan uyg'unlashuvida. Og'zaki jurnal bir necha sahifadan tashkil topadi. Har bir sahifani o'z mavzusi bo'ladi. Mavzuni yoritishga ijodiy yondashish, tasviriylik, jonli, tushunarli tarzda, qiziqarli bayon etish maqsadga erishish yo'lidir. Og'zaki jurnal sahifalari o'zaro bir-biri bilan yaqindan bog'langan bo'ladi. So'zga chiquvchi jurnal dasturidagi o'z o'rmini yaxshi bilmog'i kerak. So'zga chiquvchi mavzudan tashqariga chiqmasdan belgilangan muddatda fikrini bayon etishi zarur. So'zlovchi o'zi aytadigan ma'lumotlarini yaxshi bilgan holda eng zarurini qisqa vaqtda yoritib berishi talab etiladi. Og'zaki jurnalni o'tkazishda boshqaruvchini ham o'ziga xos o'rni mavjud. Uni vazifasi u yoki bu sahifani e'lon qilish emas, aksincha tinglovchilar uchun qo'shimcha ma'lumotlar berib, tinglovchilarni jonlashtirish. Ma'lumotlarni o'zgarib borishini hisobga olib yangi sahifaga jamoatchilikni jalb qiladi. Og'zaki jurnalni o'tkazilishi haqida kitobxonlarni habardor qilish ham tayyorgarlikni muhim vazifalaridan biri. Taklifnomalar tayyorlanadi, e'lonlar yoziladi. Kutubxonalar faoliyatida turli mavzularda og'zaki jurnalar tashkil etilgan. Masalan: "Navro'z - fasllar fayzi", "Afsonalarga cho'lg'ongan doston", "Tillar guldek so'lmaydi", "Tabiat dunyosi", "Osmon jumbog'ini ochgan alloma", "Tarix tilga kirganda", "Bobur - shoh va shoir", "Jonivorlarni asrang" va boshqalar. Ushbu og'zaki jurnallar kitobxonlarga axborot berishda o'ziga xos ahamiyatga egadir.

**Kitob taqdimoti** - kitobxonni asar mazmuni bilan har tomonlama tanishtirishga mo'ljallangan. Kitob taqdimotidan muallifi va nashriyotlar manfaatdor. Ular muhokamani tashkilotchilari sifatida ishtirok etadilar. Kitob taqdimotida kutubxona mutaxassislari masala mohiyatini yaxshi biladigan, tushunadigan mutaxassislar ishtirok etishini ta'minlashlari lozim. Kitob taqdimoti ko'pincha adabiyotlar savdosi bilan birgalikda o'tkaziladi.

**Kutubxona viktorinasi.** Ommaviy targ'ibotning bu shaklini o'ziga xos o'yin turi bo'lib, savollar asosida kitobxonlarni turli fan sohalariga oid bilimlari aniqlanadi. Boshqaruvchi savollar beradi, ishtirokchilar shu zahoti javob beradilar. Tez va to'g'ri javoblar g'alaba hisoblanadi yoki taqdirlanadi. Viktorinalar turli sohaga oid masalalarga, mashhur kishilar, yozuvchilar hayoti, ijodi haqida yoki biron bir mavzuga oid, ma'lum bir asarlar yuzasidan o'tkazilishi mumkin. Viktorinada savollar shunday bayon qilinishi kerakki, ular qisqa va mazmunli bo'lsin. Ishtirokchilarni qiziqtirishi bilan birga ularda yaxshi taassurot qoldirishi kerak. Viktorinalar asosan turli ommaviy tadbirlar dasturiga kiritiladi. Kecha dasturining bir qismi sifatida sahnada o'tkaziladi. Bu o'z navbatida kitobxonni

belgilangan muallif yoki asar bilan qanchalik tanishligini aniqlash imkoniyatini yaratadi, ma'lumotlarni ishtirokchilarga targ'ib qiladi.

**Qiziquvchilar klublari.** Kutubxonalarda kitobxonlarni ijtimoiy foydali qiziqishini rivojlantirish, kitob va boshqa hujjatlar bilan ishlashni shakllantirish va kutubxona fondidan foydalanishni faollashtirish maqsadida tashkil etiladi. Qiziquvchilar klubi odamlarni o'z hohishlariga ko'ra ko'ngilli birlashishlari asosida tashkil topadi. Bunday klublar kutubxonalar yoki kitobxonlarni o'zlarini tomonidan tashkil etiladi. Ularga yoshlar, uy bekalari, nafaqaxo'rlar a'zo bo'ladilar. Klubning eng faol a'zolari hay'at a'zolari bo'lib kutubxona xodimlari bilan klubni ish rejasini, yig'ilishlar dasturini ishlab chiqadilar. Birinchi yig'ilishda klubni nomi, emblemasi, nizomi va bir yilga mo'ljallangan dasturi qabul qilinadi. Nizomda klub faoliyatining tartibi va uning a'zolarini huquq va majburiyatlari belgilanadi. Maslan, Adabiyot va san'at klubiga, adabiyot va san'atni sevuvchi, axlohiy barkamollikka intiluvchilar unga a'zo bo'lishi huquqiga ega. Klub yig'ilishi har oyda bir marta o'tkaziladi. Qiziqishga oid klublar turli mavzularda bo'lishi mumkin. Masalan: "Tabiat shaydolari", "Yosh kitobsevarlar", "Suhbatdosh", "Sport-klub", "Uy bekasi" va boshqa mavzularda. Klub yig'ilishini tayyorlash va o'tkazish uchun kitobxonlarni o'zlarini jalb etish muhim ahamiyatga ega. Yig'ilish dasturiga suhbatlar, ma'ruzalar, mashhur shaxslar bilan uchrashuvlar, ekskursiyalar kiritish mumkin. Kutubxonachilar va klub a'zolari klub yig'ilishini qiziqarli bo'lishi uchun doimo yangiliklarni joriy etib borishlari zarur. Qiziqish klubining butun faoliyati shaxsni erkin rivojlanishiga, ijodiy qobiliyatini shakllanishiga qaratilgan bo'ladi.

**Kitobxon benefisi.** Frantsuz tilidan "Benefis" so'zi bir yoki bir necha ishtirokchiga bag'ishlangan namoyishdir. Kutubxonalarda bu eng yaxshi kitobxonni ulug'lash tarzida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar sarasiga kiradi. Ushbu tadbir o'z ichiga faol kitobxon biografiyasi, kitobga bo'lgan qiziqishlari, uy kutubxonasiagi kitoblarining ko'rgazmasi va boshqalarni o'z ichiga oladi. Kitobning hayotida tutgan o'rni, shaxsiyatini shakllanishidagi va ko'p kitob o'qish orqali kuchli bilimga ega bo'lganini ko'rsatib berishi lozim. Eng yaxshi kitobxon benefisi "Mening sevimli kitoblarim" nomli kitoblar ko'rgazmasi bilan davom ettiriladi.

**Bibliokafe** – yuqori sinf o'quvchilari orasida o'tkazilishi mumkin bo'lgan o'yinlardan biri. Retro uslubidagi yozuvlar, kutubxonachi – ofitsiant ko'rinishida. Menyuda – ma'naviy ozuqalar: gazeta va jurnallardagi dolzarb maqolalar, assorti "Muvafaqqiyatga erishish yo'li" va boshqalar. "Menyu"ni har bir kutubxona o'z foydalanuvchilari dididan kelib chiqib tez-tez yangilab boradi. Yoshlarni

kutubxonaga jalb etishda hududlardagi maktab, liyets, kollej o'quvchi va talabalarini kitobga qiziqishlarini uyg'otishda kutubxonachilar joylarga borib tanaffus vaqtida qiziqarli o'ziga jalb eta oladigan tusga kirib ham kitoblarning va kutubxonaning reklamasini tashkil etishadi.

**Biblioperfomans** (ingliz tilidan performance – “Namoyish, spektakl”) – bu san'atning bir turi bo'lib, unda badiiy adabiyotlardagi qahramonlar ishtirokida sahna ko'rinishi tashkil etiladi. Bunda badiiy adabiyot va san'at birlashadi. Masalan, bolalar ijodiyot markazlari o'quvchilarini jalb etgan holda turli sahna ko'rinishlarini tashkillashtirish mumkin. Ular ertak qahramonlari ko'rinishida kiyinib o'z dasturlarini namoyish qiladilar. Kichik yoshdagi bolalar ertak qahramonlarini nomini va qaysi asardan olinganligini topishlari kerak bo'ladi.

**“Munozara arg'imchog'i”** – debat va munozaralar tarzida o'tkaziladi. Ushbu tadbirning mohiyati arg'imchoq uslubida tepaga va pastga tushish: qanchalik qattiq itarilsa (dalillar), shunchalik arg'imchoq tepaga ko'tariladi. Guruhlarni ikkiga bo'lib, bir-birlariga qarama-qarshi joylashtiriladi. SHundan so'ng o'rta ga muhokama uchun savol tashlanadi. Tomonlar o'z javoblarini beradilar va arg'imchoq harakatga keladi. Bunda ikki yoki uch nafar nazoratchi ikkita guruh fikrlarini tahlil etib boradi. “Munozara arg'imchog'i”da o'rta ga tashlangan mavzu asosida guruhlarning biri “To'g'ri”, yoki “Qarshi” munosabat bildiradilar. Guruhlar o'z-o'zidan ikkiga bo'linadi: Optimistlar va pessimistlar. Taxminan savollar quyidagicha bo'lishi mumkin: birinchi guruh – “Men rost gapishtidan qo'rqlayman, chunki...”, ikkinchi guruh esa – “Men esa yolg'on gapishtidan qo'rqlaman, sababi...”.

**Dunyo bo'ylab sayohat.** Ushbu aktsiya g'oliblarga maxsus sovg'alar ajratiladi (shashka, shaxmat, stol tennisi va boshq.) jahoning mashhur adiblari asarlaridan parcha o'qiladi va intellektual ring tarzida o'tkaziladi. Ishtirokchilarni choy va boshqa shirinliklar bilan mehmon qilish mumkin.

**Adabiy sud** – hikoya tarzidagi rollarga bo'lingan sud majlisini takrorlovchi hikoyali o'yindir. Ishtirokchilar rollarga bo'linadi: sudy, himoyachilar, prokuror, ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvoхlar tanlab olinadi. Ayblanuvchi adabiy qahramonlarning biri bo'lishi mumkin. Adabiy yarmarka – bu bir vaqtning o'zida o'tkaziladigan kichik ammo turli xil tadbirlar majmuasidir. Bular viktorinalar, tanlovlar, taniqli shaxslar bilan uchrashuvlar, sahna ko'rinishlari va sovrinli o'yinlardan tashkil topishi mumkin.

**She'riy jang** – zamonaviy shoirlar musobaqasi. Ushbu munozaralar yoshlarda katta qiziqish uyg'otib, ularni ko'proq jalb etadi. Ushbu munozara odatdagidek

tinchlikda va birgina she'r aytuvchining tovushi keladigan tadbirlar sarasiga kirmaydi. Fortepiano tovushi va qo'llab quvvatlovchilarning baland tovushlari va qarsaklar ostida o'tadigan kechalardan biridir. Bu – eng kuchli va eng yorqin shoirlar musobaqasidir.

**Katta kutubxona** – kitob va mutolaa madaniyatini rivojlantirish maqsadida kutubxona hovlisida yangi adabiyotlar ko'rgazmasi o'tkaziladi.

**Mashhurlar bilan uchrashuv** – hammaga qiziqarli bo'lgan turli soha egalari bilan haftaning oldindan belgilangan kunida uchrashuvlar o'tkazish. Ushbu uchrashuvlar avvaldan e'lon qilib, kutubxonaga reklama plakatlari osib qo'yiladi.

**She'riyat yulduzlari** – ushbu tadbir eng mashhur shoirlarga bag'ishlab o'tkaziladi. Ularning she'rlari o'qib eshittiriladi. Kitobni tanla. Kutubxonachi bolalarga uylarida o'qish uchun kitoblarni tanlab olishlarini aytadi. Kitoblar qog'ozga o'ralgan holda va kitobxon qaysi kitobni olayotganligini bilmaydi. Jasorat uchun sovrinlar beriladi. Kitobni qaytib olayotganlarida o'quvchi bilan kitob nima haqida yozilgani to'g'risida suhbat o'tkazish tavsiya etiladi. Ushbu uslub kitobxonlik madaniyatini oshirish bilan bir qatorda unutilib ketayotgan mashhur asarlarni qayta jonlanishiga olib keladi.

**Kitob auktsioni** – har bir kitobxon avval o'qib chiqqan kitobini shunday tasvirlashi va taqdim etishi kerakki boshqalarda ham ushbu kitobni o'qib chiqish ishtiyoqi uyg'onishi kerak. Ishtirokchilarning eng ko'p ovozini to'plagan kitobxon g'olib deb e'lon qilinadi.

**Kitob dress-kodi** – ommaviy tadbirlardan biri bo'lib, yoshlarning kamolga yetishida, zamonaviy inson imijini yaratishdagi o'qilishi zarur bo'lgan kitoblar namoyish qilinadi.

**Adabiy suhbatlar** – norasmiy konferentsiyalarda qisqagina tarzda ma'ruzalar o'qish. Adabiy suhbatlar an'anaviy tarzda o'tkaziladi. Ishtirokchilar 20 tadan iborat rang barang slaydlar bilan o'z ma'ruzalarini tayyorlaydilar. Har bir slaydni izohlash uchun yigirma soniyadan vaqt beriladi va umumiylajiga ajratilgan vaqt olti daqiqayu qirq soniyani tashkil etadi. Har bir chiqishdan so'ng ishtirokchilar o'z fikrlarini bildirishlari va savollar berishlari mumkin. Ma'ruzalar birin ketin davom etadi.

### **Tadbirlarni boshqa shakllari**

**Kitob auktsioni** – har bir ishtirokchi oldindan o'qilgan kitobni taqdim etadi. Bu esa tadbirda ishtirok etganlarda uni o'qishga qiziqish uyg'otadi. Kitobxonlar

taqdim etilgan kitoblarga ovoz beradi. Ishtirokchilardan ko'proq ovoz olgan kishi g'alaba qozonadi.

**Adabiy karnaval.** Karnaval – bu kiyinish va teatrlashtirilgan tomoshalardan iborat ommaviy xalq festivali. Kutubxonada adabiy qahramonlar karnavali yoki adabiy asarlar karnavali o'tkazilishi mumkin, unda har bir adabiy asar kreativ tarzda taqdim etiladi.

**Tok-shou.** Ingliz tilidan so'zma-so'z tarjimasi "og'zaki tomosha". Bu talqin tok-shou va munozara o'rtasidagi asosiy janr - dinamizm, o'yin kulguni o'z ichiga oladi. Tok-shou boshlovchisi qiziqarli odamlarni taklif qiladi, o'rtaga muhokama qilish uchun savollar beradi, suhbatni boshqaradi, asosiy xulosalarga olib keladi va bayonotlarni umumlashtiradi. Ishtirokchilarga aktyorlar tomonidan ko'rsatilgan hayotiy voqealarni muhokama qilish topshiriladi. Maqsad kitobxonlarning axloqiy tarbiyalarini shakllantirish va rivojlantirishdir. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan kutubxonalar interaktiv faoliyat uchun WebChat tizimidan foydalanishi mumkin. Masalan: "Kitob va o'qish – muvaffaqiyatga yo'l".

**Flesh-mob** (inglizcha flesh-mobdan – "tezkor olomon"). Tadbir hayratlanarli ta'sirga ega bo'lib, o'tkinchilar orasida hayrat va qiziqish uyg'otishga qaratilgan. Masalan: sariq futbolkalar va kutubxona ramzlari tushirilgan beysbol qalpoqlarini kiygan flesh-mob ishtirokchilari kutilmaganda shaharning ma'lum bir gavjum joyida paydo bo'lib, bir vaqtning o'zida o'zлari bilan olib kelgan kitoblarini ochib, bir necha daqiqa ovoz siqarib o'qiydilar va xuddi shunday tarzda – kutilmaganda bir vaqtning o'zida tarqalib ketadilar.

Olimpiya o'yinlari arafasida kutubxonalar intellektual ko'pkurash, kitob marafoni, adabiy musobaqalar, kutubxona va sport maydonchasi kabi tadbirlar bilan foydalanuvchilarning joriy sport tadbiriga qiziqishini oshirishi mumkin.

Kutubxonalarda o'tkazilishi mumkin bo'lgan ommaviy tadbirlar shakllari ro'yxati:

Suhbat  
Uchrashuv kecha  
Xotira kechasi  
Uch avlod uchrashuvi  
Video ma'ruza  
Xotira soati  
Viktorina  
Xotira kuni

Axborot kuni  
Munozara  
Musobaqa  
Zakovat intellektual o'yini  
O'qish musobaqasi  
Insholar tanlovi  
Konferentsiya  
Adabiy kecha  
Adabiy-musiqli kecha  
Marafon  
Kitob taqdimoti  
Siyosiy munozara  
Fikrlar chorrahasi  
Mushoira kechasi  
Teatrlashtirilgan musiqli ertak namoyishi  
Ijodiy kecha  
Ijodiy uchrashuv  
Salomatlik darsi

Qadrli hamkasblar! Umid qilamizki, ushbu qo'llanma kutubxonalarda o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar sifatini yaxshilash uchun sizlarga yaqindan yordam beradi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Metodik qo'llanmalarni tuzish texnologiyasi [Matn] : axborot-kutubxona muassasalari mutaxassislari uchun metodik qo'llanma / tuzuvchi: S.Kamilova ; muharrirlar K.Kamilova, D.Rasuleva. – Toshkent : Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2022.- 48 b.
2. Kutubxonachiga yordam : dayjest / Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi ; tuzuvchi M. Kamilova ; muharrir D. Mansurov; mas'ul muharrir U. Teshabaeva – Toshkent : Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonanasi nashriyoti, 2019. – 64 b.
3. [Креативные формы работы современной библиотеки .pdf](#) [elektron resurs] // Kirish tartibi : <https://lib-avt.ru/kollegam/kreativnye-formy-raboty-sovremennoy-biblioteki>
4. [Современные формы работы библиотек способствующие продвижению чтения и книги 2021 .pdf](#) [elektron resurs] // Kirish tartibi : <http://nowbibl.ru/2021/07/sovremenny-e-formy-raboty-bibliotek-sposobstvuyushchie-prodvizheniyu-chteniya-i-knigi/>